

DEMOGRAFIK HOLAT

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 1866,7 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 31,0 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 619,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,2 %), qishloq aholisi soni 1247,4 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-dekabr

Doimiy aholi soni **31,0 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **41,2 ming nafarni** tashkil etdi.

8,5 mingta vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limgalarida **15,8 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-dekabr, ming kishi)


| | 2018 y. | 2019 y. |
|---|---------------|---------------|
| Doimiy aholi soni, davr oxiriga | 1835,7 | 1866,7 |
| Tug'ilganlar | 40,1 | 41,2 |
| Vafot etganlar | 8,2 | 8,5 |
| Aholining tabiiy o'sishi | 31,9 | 32,7 |
| Kelganlar | 6,3 | 5,7 |
| Ketganlar | 7,5 | 7,4 |
| Migratsiya saldosi | -1,2 | -1,7 |
| Tuzilgan nikohlar, ming birlik | 16,0 | 15,8 |
| Nikohdan ajralishlar, ming birlk | 1,0 | 1,0 |
| <i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i> | | |
| tug'ilish | 22,0 | 22,2 |
| o'lim | 4,5 | 4,6 |
| aholining tabiiy o'sishi | 17,5 | 17,6 |
| tuzilgan nikohlar | 8,8 | 8,5 |
| nikohdan ajralishlar | 0,6 | 0,6 |




Doimiy aholi soni
(1- yanvar holatiga)

| | 2019 y. | 2020 y. | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % |
|------------------------|----------------|----------------|---|
| Xorazm viloyati | 1 835,7 | 1 866,7 | 101,7 |
| Urganch sh | 141,7 | 143,9 | 101,6 |
| Xiva sh | 90,7 | 92,1 | 101,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Bogot | 160,9 | 163,8 | 101,8 |
| Gurlan | 145,5 | 147,7 | 101,5 |
| Qo'shko'pir | 168,6 | 171,7 | 101,8 |
| Urganch | 193,9 | 197,5 | 101,9 |
| Hazorasp | 243,5 | 247,8 | 101,8 |
| Xonqa | 182,7 | 185,5 | 101,5 |
| Xiva | 142,5 | 144,9 | 101,7 |
| Shovot | 166,4 | 169,3 | 101,7 |
| Yangiariq | 113,7 | 115,5 | 101,6 |
| Yangibozor | 85,6 | 87,0 | 101,6 |

**Hududlar kesimida aholi soni
(2018 - 2019 yil yanvar- dekabr)**



**Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2020 yil 1 yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)**




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Hazorasp tumanida viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni tashkil etib, keyingi o'rinnlarda Urganch tumanida 10,6 %ni, Xonqa tumanida 9,9 %ni va Qo'shko'pir tumanida 9,2 %ni tashkil etgan.

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 41,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga


faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,2 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 22,0 promille bo'lgan) kuzatildi.

Shaharlar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2019 yil yanvar- dekabr)




Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Xorazm viloyati bo'yicha tirk tug'ilganlar soni
(yanvar-dekabr)**



Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 8,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega o'zgargan (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille bo'lgan).

**Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni
(yanvar- dekabr)**




Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar- dekabr)




Vafot etganlar soni,
ming kishi



O'lim koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan, promille




**Shaharlar va tumanlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar- dekabr holatiga, 1000 tirk tug'ilganga nisbatan)**




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,1 % - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,9 % - o'simtalardan, 5,7 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,1 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,6% - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,1 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,5 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 72,9 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,4 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,8 % - tug'ma anomaliyalardan, 0,4 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,5 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,2 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 2,8 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2019 yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



**O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot
(2019 yil yanvar-dekabr)**



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar- dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 32,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 0,8 ming kishiga (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 31,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.


Tabiiy o'sish — 32,7 ming kishi



Nikoh. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'lmlari tomonidan 15,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,5 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (2,6 %), Gurlan tumani (3,2 %), Shovot (2,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Xorazm viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot
(yanvar- dekabr)**




Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.

**Shaharlar va tumanlar kesimida nikoh tuzganlar
va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti**
(2019 yil yanvar- dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xiva shahar (20,7 %) va Xiva (22,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Xorazm viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida
ma'lumot (yanvar- dekabr)**



Migratsiya. 2019 yil yanvar- dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,7 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,2 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi

ming kishi

| | 2018 yil yanvar- dekabr | 2019 yil yanvar- dekabr |
|--------------------|----------------------------|----------------------------|
| Ko'chib kelganlar | 6,3 | 5,7 |
| Ko'chib ketganlar | 7,5 | 7,4 |
| Migratsiya saldosi | -1,2 | -1,7 |

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 0,5 ming kishi), Gurlan (minus 0,3 ming kishi), Xonqa (minus 0,3 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 0,3 ming kishi) kuzatildi.

Xorazm viloyat Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
(62) 224-65-08